



## I. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiyligi hajmi 11071,4 mlrd. so'mni yoki 2020-yilning mos davriga nisbatan 100,2 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 3367,6 mlrd. so'mni (89,6 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 7451,0 mlrd. so'mni (105,9 foiz), qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 67,2 mlrd. so'mni (100,2 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 17,2 mlrd. so'mni (89,3 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,2 mlrd. so'mni (98,9 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 168,2 mlrd. so'mni (101,5 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)  
hajmining taqsimlanishi, foizda**




**2021- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari**



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Nishon (107,2 foiz), Kitob (107,1 foiz), Muborak (105,2 foiz), Dexqonobod (103,0 foiz), Shahrisabz shahar (102,3 foiz), Kasbi (102,1 foiz) tumanlarida o'sish kuzatildi. Yakkabog' tumanida (86,8 foiz) va Qarshi tumanida (91,6 foiz) esa aksincha past o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 14,7 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda, Koson tumani 9,0 foiz, Kitob tumani 8,5 foiz, Qamashi tumani 8,4 foiz va Kasbi tumani 7,1 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi, eng kam ulush Shahrисabz (0,9 foiz) va Qarshi (0,9 foiz) shaharlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari  
(xizmatlar)ning hajmi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sura’ti %</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>11071,4</b>	<b>100,2</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	94,0	100,9
Shahrисabz	101,0	102,3
<i>tumanlar:</i>		
G’uzor	694,3	101,4
Dehqонобод	510,8	103,0
Qamashi	924,7	100,4
Qarshi	772,2	91,6
Koson	995,3	100,3
Kitob	942,0	107,1
Mirishkor	718,2	101,8
Muborak	636,4	105,2
Nishon	734,8	107,2
Kasbi	787,4	102,1
Chiroqchi	1630,4	100,4
Shahrисabz	702,2	101,3
Yakkabog‘	827,7	86,8

**2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**  
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*



- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

### **DEHQONCHILIK**




2021- yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3367,6 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 31,1 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig'imi.** 2021 yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 162223 tonna sabzavot (106,8 foiz), 101732 tonna kartoshka (104,6 foiz), 33746 tonna oziqbop poliz (91,7 foiz), 52488 tonna meva va rezavorlar (76,4 foiz), 6333 tonna uzum (84,0 foiz) yig'ib olindi. Bundan tashqari 516992 tonnadan ortiq don ekinlari (83,5 foiz) ishlab chiqarildi.

**2021- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Don	423866	81,4	78507	94,2	14619	97,2
Kartoshka	7929	70,0	93719	109,2	84	94,4
Sabzavotlar	18673	106,1	141911	106,8	1639	115,7
Poliz	9874	70,0	23773	105,2	99	128,6
Mevalar va rezavorlar	18651	54,5	33413	99,2	424	48,5
Uzum	3311	74,8	2885	100,9	137	53,3

**2021- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**





## CHORVACHILIK

Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2021- yilning yanvar-iyunida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7451,0 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 105,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 68,9 foizni tashkil etdi.

2021- yilning 1 iyul holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,7 foiz (jami 1604,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,2 foiz (518,1 ming bosh), qo‘y va echkilar 100,9 foiz (4629,3 ming bosh), otlar 102,1 foiz (32,6 ming bosh), parrandalar 101,0 foizni (5767,4 ming boshni) tashkil etdi.

### 2021- yil 1- iyul holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>1604,7</b>	<b>102,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	68,8	100,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	1515,5	102,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,4	111,6
<b>Ulardan sigirlar</b>	<b>518,2</b>	<b>102,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	25,0	109,2

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	487,4	101,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,8	119,0
<b>Qo’ va echkilar</b>	<b>4629,3</b>	<b>100,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	287,7	103,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	4060,3	100,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	281,3	108,0
<b>Otlar</b>	<b>32,6</b>	<b>102,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	3,5	117,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	27,8	100,0
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,3	113,3
<b>Parrandalar</b>	<b>5767,4</b>	<b>101,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	189,9	66,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	4172,3	104,8
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1405,2	97,2


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 94,4 foizni, fermer xo‘jaliklarida 4,3 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 94,1 va 4,8 foizni, qo‘ylar va echkilar 87,7 va 6,2 foizni, parrandalar 72,3 va 3,3 foizni tashkil qildi.

**2021- yil 1 iyul holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**




*shu jumladan: sigirlar (ming bosh)*



**Qo'yilar va echkilar (ming bosh)**



**Parrandalar (ming bosh)**



2021- yilning yanvar-iyunida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 141,4 ming tonna go‘sht (2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 106,8 foiz), 542,0 ming tonna sut (103,5 foiz), 236,7 ming dona tuxum (103,1 foiz) ishlab chiqarildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,0 foiz, sut ishlab chiqarishda 99,5 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 67,7 foizni tashkil etdi.



#### **2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Go‘sht (tirik vaznda), <i>ming tn.</i></b>	<b>141,4</b>	<b>106,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	2,5	131,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		
	137,4	107,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
	1,5	67,0
<b>Sut, <i>ming tn.</i></b>	<b>542,0</b>	<b>103,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	14,1	84,3

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
--	----------------	--------------------------

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	525,4	104,2
---	-------	-------

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	82,4
--	-----	------

<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>236,7</b>	<b>103,1</b>
-------------------------	--------------	--------------


*shu jumladan:*

Fermer xo'jaliklari	5,4	72,9
---------------------	-----	------


Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	154,9	105,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	76,4	100,7

### **2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Go'sht (ming tonna)**



**Sut (ming tonna)**



**Tuxum (mln. dona)**




**Fermer xo‘jaliklari.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1789,6 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 79,8 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiylajmi fermer xo‘jaliklarining ulushi 16,6 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1608,9 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 77,5 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 180,7 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,9 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig‘imi.** 2021- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklar tomonidan 423866 tonna don ekinlari(o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (81,4 foiz), 18673 tonna sabzavot (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (106,1 foiz), 7929 tonna kartoshka (70,0 foiz), 9874 tonna oziqbop poliz (70,0 foiz), 18651 tonna meva va rezavorlar (54,5 foiz), 3311 tonna uzum (74,8 foiz) yetishtirildi.

**2021- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	2020- yil yanvar-iyun		2021- yil yanvar-iyun		<i>2020- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	
Kartoshka	11334	11,7	7929	7,8	70,0
Sabzavot	17592	11,6	18673	11,5	106,1
Poliz	14102	38,3	9874	29,3	70,0
Meva	34195	49,7	18651	35,5	54,5
Uzum	4427	58,7	3311	52,3	74,8

**Yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari**



**Chorvachilik.** 2021- yilning yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 2496 tonna go‘sht (2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 131,3 foiz), 14075 tonna sut (84,3 foiz), 5435 ming dona tuxum (72,9 foiz) ishlab chiqarildi.

### **Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

	2020- yil yanvar-iyun		2021- yil yanvar-iyun		2020- yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sht	1901	1,4	2496	1,8	131,3
Sut	16687	3,2	14075	2,6	84,3
Tuxum, ming dona	7456	3,2	5435	2,3	72,9

2021- yilning 1 iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 68,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 25,0 ming bosh sigir, 287,7 ming bosh qo‘y va echkilar, 3,5 ming bosh ot, 189,9 ming bosh parrandalar mavjud.

### **Yanvar-iyun holatiga fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

